

MAVLONA MUHAMMAD QOZINING MANAVIY ME'ROSIDA AXLOQIY QARASHLAR

Ilmiy rahbar: Xurshid Samatov O'lmasjonovich

Karimov Sherxon Muzaffarovich

Toshkend Axborot Texnologiyalar Universiteti

Samarqand filiali talabasi.

Telefon raqam: +998917319205

Elektron pochta: sherhonkarimov00@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada XV asrda faoliyat yuritgan atoqli shayxlardan biri Mavlono Muhammad Qozi faoliyati va hayot yo'li tahlil qilingan bo'lib, uning asarlarida davlat.

Kalit so'zlar: Shayx, murid, risola, tartib, qonun, davlat.

Asrlar davomida sharq o'lkalarida davlatni idora etish qoidalarini bayon qiluvchi, podsholarni odil siyosat yuritishga undovchi ko'plab katta-kichik asarlar yaratilgan. Bazi mualliflar mamlakatni boshqarish masalalariga o'z asarlarining ayrim boblarini bag'ishlagan bo'lsalar boshqalari bu mavzuda alohida asarlar yozgan.

Shunday asarlardan birining muallifi, Hoja Ubaydulloh Ahrorning muridi va izdoshi, naqshbandiya tariqati atoqli shayxlaridan biri Muhammad Qozi numi bilan mashxur bolgan Muhammad Ibn Burxoniddin 1447- 48 (hijriy 851-yilda) yilda Samarqanda tug'ilgan. Uning hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlar XVI-asda yaratilgan "Rashaxoti ayn ul-hayot", "Tarixi Rashidiy", "Majmu' at-tavorix" kabi asarlarda mavjuddir. Bu asarlar mualliflari Muhammad qozining zamondoshlari hisoblanadi. Bu manbalardan ma'lum bo'lishicha, Muhammad qozi o'z zamonasidagi ilmlarni mukammal egallagan va sufiylik yo'lini tutgan. U naqishbandiya shayxlari orasida taniqli bo'lgan o'sha zamondagi eng yirik shayx Hoja Axror valiyning (1404-1490)

muridlaridan biri va Maxdumi A'zam Daxbidiy nomi bilan mashxur shayx Axmad hojagi ibn Jaloliddin Kosoniyning (1464-1542) murshidi va ustozи bo'lган. Muhammad qozi Hoja Axror hizmatida uning vafodiga qadar, yani 1490-yilgacha bo'lган. Hoja Axror vafotidan keyin Muhammad qozi Toshkent va Buxoro shaharlarida yashagan. Shayboniyxon hukumronligi davrida ham (1500-1510) uning obro' e'tibori yuqori bo'lib, Shayboniyxon ukasi, Buxoro hokimi Maxmud Sulton unga murid bo'lган. 1512-yil Muhammad qozi Andijonga ketadi va Axsi shaxriga boradi. Shayboniylardan bo'lган Sevinchxo'jaxon taklifi bilan Toshkentga boradi va shu yerda 1516-yil (hijriy 922-yil) vafot etadi. Muhammad Qozining asosiy asari «Silsilat ul-orifin va tazkirat us-siddiqin» bo'lib, ko'pincha qisqacha «Silsilat ul-orifin» deb yuritiladi. Bu kitob 1504 yili yozilgan. Asarning bir qancha qadimiy va so'nggi asrlarga oid qo'lyozma nusxalari bizning davrimizgacha yetib kelgan; shundan oltitasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanmoqda. «Silsilat ul-orifin» Xoja Ahrorning muridi va kuyovi Mir Abdulavval Nishopuriyning «Masmuot», Faxriddin Ali Safiyuning «Rashahoti ayn ul-hayot» va muallifi noma'lum «Manoqibi Xoja Ahror» asarlari kabi Xoja Ubay-dulloh Ahror hayoti va faoliyatini yorituvchi asosiy manbalar sirasiga kirad.

Muhammad Qozi qalamiga mansub mo'jaz bir risola davlatni idora qilish, podshohlarning odobi va shu kabi masalalarga bag'ishlangan. Risolaning alohida ko'chirilgan nusxasi bizga ma'lum emas. XVI asr muarixi va davlat arbobi Mirzo Muhammad Haydarning ta'kidlashi va risolaning o'zida aytishicha, Muhammad Qozi uni o'z shogirdi Mirzo Haydarning savollariga javob tariqasida bitgan. Muhammad qozi ikkinchi marotaba Shayboniyxon xukmronligi davrida Mirzo Xaydar joniga oro kiradi. Keyinchalik ham ular ko'p bora uchrashadiradi. Muhammad Qozi vafotidan sal ilgari Mirzo Xaydar savollariga javoban bir asar bitadi, ammo uni shogirdiga topshira olmasdan vafot etadi. Risolani Mirzo Haydarga Muhammad qozining o'g'li Qutbiddin Axmad topshiradi. Mirzo Haydar ustozining risolasini Hindistonga olib ketadi."Tarixi Rashidiy" asarini yozganida bu risola matnini to'la keltirgan. Muhammad Qozi o'z risolasida davlatni idora etishda podsholar amal qilishi lozim bo'lган шартларни боян

etishdan oldin, qaysi bir gunohlar og'ir gunoh deb xisoblanishi haqida mulohaza yuritadi. Nohaq odam o'ldirish, yetimning molini nohaq olish, yolg'on guvohlik berish, boshqa odamlarni gunoh ishga undash kabilarni u og'ir va kechirilmas gunohlar deb aytadi. Risolaning bu qismini yozishda Muhammad qozi, Payg'ambar sollallohu alayhi vassallamga nisbat berilgan naqlar va shayx Abu Tolib Makkiyning "Qut ul-qulib" ("qalblar og'izi") asaridan foydalangan. Risolaning asosiy qismida mamlakatda tartib va barqarorlik bo'lishi uchun podshoh amal qilishi lozim bulgan muhim shartlar, podshoh va fuqarolarning o'zaro munosabatlari, davlat siyosatining o'ziga xos nozik va murakkab tomonlari haqida mulohaza yuritiladi. Podshohlarni odil siyosat yurgizishga undab aytilgan o'gitlar va o'tmish hukmdorlari hayotidan bazi misollar keltiradi. "Agar kimningki zimmasiga bandalarning ishlarini yo'lga qo'yish vazifasi tushsa va unga davlatni boshqarmoq tuyassar bulsa – u shuni bilsinki, podshohlikning o'z shartlari bulib, bu shartlarga rioya etilmasa, sultanatning diniy va dunyoviy ishlarida tartib bo'lmaydi. Shuningdek, podshoh oldida mamlakat fuqarosining muayyan huquqlari bulib, podshoh ularni tamin etmasa, u oxirat azobidan najot topa olmaydi" deb yozadi o'z asarida. Mazkur risola, shubhasiz, o'rta asrlardagi mutafakkir kishilarning davlatchilik, siyosat, podshoh va fuqaro munosabatlari masalalariga doir qarashlari vaadolatli hukmdor haqidagi tasavvurlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Muhammad Qozining "Podshoh davlat va mamlakatiga taxdid qiladigan xatardan g'ofil qolmasligi kerak" degan so'zlari hozir ham ahamiyatini yuqotmagan. Risola keyinchalik ham o'z ahamiyatini yuqotmagan. Keyingi asrlarda bu asardan mashhur davlat arboblari va mutafakkir olimlar undan foydalanganlar. Masalan, XIX asrda yashab ijod etgan atoqli donishmand va adib Axmad Donish (1827-1897) ning eng yirik asari – "Navodir ul-vaqoyi" ning "Saltanat fazilati va sultonlarning muomilasi" bobi Muhammad Qozi asariga tayanib yozilgani, garchi Axmad Donish bunga ishora qilmagan bulsada, malum buladi. Ahmad Donish ham podshohlar amal qilishi lozim bo'lgan o'nta shartni bayon etar ekan, ko'p hollar-da Muhammad Qozi risolasidagi shartlar va ayrim misollarni juz'iy o'zgarishlar bilan takrorlaydi hamda o'zi ham boshqa misollar keltirib masalani

kengaytiribroq bayon qiladi. Albatta, o'zidan oldin o'tgan adiblar ijodidan erkin foydalanish, ularning asarlaridan zarur joylarni ba'zan nomini ko'rsatib, ba'zan ko'rsatmay, qayta ishlab yoki aynan o'z asarlarida foydalanish o'tmis adiblari uchun oddiy va tabiiy bir hol hisoblangan. Muhammad Qozining ushbu risolasi naqadar muhim ahamiyatga ega ekanini uning asrlar davomida o'z ahamiyatini yuqotmaganidan bilib olishimiz mumkin. Uning asarida keltirilgan fikr-mulohazaalar hozir ham ahamiyatini yuqotmagan. Chunki, hozirda har bir raxbar birinchi o'rinda xalq dardini, manfaatini o'yashi kerak.

Foydalanilgan adabiyodlar ro'yhadisi

1. <https://www.kh-davron.uz>
2. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
3. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
4. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
5. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
6. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).
7. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction.
8. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhsumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 45-48.
9. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhsumi Azami Kasani)." European Scholar Journal 2.11 (2021): 45-48.
10. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhsumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.